

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA CHET TILI O'QITISHNING LINGVODIDAKTIK MASALALARI

Kiyamova Maxbuba

Turon universitet, dotsent

kiyamovamaxbuba@gmail.com

+998904429831

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida chet tili o'qitishning lingvodidaktik masalalari atroflicha tahlil qilingan. Uzluksiz ta'lim tizimida (umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari) o'quvchilarning chet tili fanini mukammal o'zlashtirishida uzviylikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi keng yoritilgan. Hozirgi kunda o'quvchilarning chet tili fanidan bilim darajasini yuqori darajaga ko'tarish, shu bilan birga o'quvchilarning chet tilida erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash, yoshlarda ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish va ta'limni uzviylikda olib borish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada yoritilayotgan masala o'quvchilarning chet tilidagi savodxonligini oshirish va til o'rganuvchilarning tilga oid ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Uzluksiz ta'lim tizimida chet tili o'qitish jarayonida rovon kommunikativ muloqotga erishish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chet tili o'qitishning lingvodidaktik masalalaridan biri kommunikativ muloqatni rivojlantirishdir. Chet tili o'qitishning lingvodidaktik masalalarini rivojlantirish chet tilini mukammal o'rganuvchilar va o'rgatuvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *lingvodidaktika, til aspektlari, kommunikativ kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, tizimli yondashuv*

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of linguodidactic problems of teaching a foreign language in the system of continuous education. It is widely believed that ensuring continuity in the system of continuous education (secondary schools, academic lyceums, vocational schools) is important for students to master a foreign language perfectly. At present, it is important to raise the level of students' knowledge of foreign languages to a high level, while simultaneously developing students' skills of free thinking in a foreign language, educating independently thinking youth, forming creative abilities in young people. people and conducting training in a coordinated form. The problem considered in this article allows to increase the level of students' foreign language literacy and develop language skills in language learners. Achieving free communicative communication in the process of teaching a foreign language in the system of continuous education is one of the pressing problems. One of the linguodidactic issues of teaching a foreign language is the development of communicative communication. The development of linguistic and didactic issues of teaching foreign languages has practical significance for advanced students and teachers of foreign languages

Keywords: *linguodidactics, language aspects, communicative competence, competence approach, systemic approach.*

Kirish. (Introduction)

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi yaratildi. Bunga ko'ra ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganish tashkil etildi. Yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalanib, chet tilini kompetensiyalar asosida o'rgatish yo'lga qo'yildi va amalga



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

oshirilmoqda. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida (umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari) chet tili o'qitishning lingvodidaktik masalalari asosiy o'rin egallaydi. Uzluksiz ta'lim tizimida chet tili o'qitishning lingvodidaktik masalalaridan biri- bu o'rganayotgan tilda rovon kommunikativ muloqotga erishishdir. **Lingvodidaktika** so'zi lotincha "lingua" til va yunoncha "didaktikos" ta'lim so'zlaridan olingan bo'lib, til o'rganishning umumiy nazariyasi ma'nosini ifodalaydi. Demak, Lingvodidaktika termini lingvo hamda didaktikos so'zlari ma'nosidan shakllangan umumiy tushunchani o'z ichiga oladi. Lingvodidaktikaning asosiy maqsadi til o'rgatish va o'rganishni samarali, tizimli va mantiqiy ravishda tashkil etishdan iborat. Lingvodidaktikaning asosiy vazifasi o'rganilayotgan tillarning mos keluvchi va farqli tomonlarini tadqiq qilish, o'rganilayotgan til tuzilishini tahlil qilishdir. Demak, lingvodidaktikaning asosiy vazifasi lingvistika va pedagogika chegarasida turgan muammolarni hal qilishdan iborat.

Chet til o'qitishning lingvodidaktik masalalari til o'rgatish jarayonida til o'rganuvchilarning tilga oid ko'nikmalarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Til ko'nikmasini rivojlantirish esa tilni tushunish, ishlatish va undan muloqatda foydalanish qobiliyatini o'stirishdan iborat. Natijalarga erishish o'rganilayotgan til aspektlarini mukammal egallashni talab etadi. Til aspektlari –bu tilning fonetikasi, grammatikasi va leksikasidir. Til ko'nikmasini rivojlantirish til aspektlari bo'lmish fonetika, grammatika va leksikasini o'rgatishda tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va gapirishni shakllantirish, muloqotga to'g'ri qo'llash malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Uzluksiz ta'lim tizimida til aspektlari to'g'risagi amaliy va nazariy bilimlarni rivojlantirish, shu bilan birga egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni ilmiy faoliyatga erkin qo'llay olishni ta'minlash chet til o'qitishning lingvodidaktik masalalarining asosini tashkil etadi. Shu o'rinda bilim, ko'nikma va malaka nima degan savolni yoritishimiz lozim. **Bilim** — til aspektlari (fonetika, grammatika, leksika) ni o'rganish haqida tasavvurga ega bo'lish, tilni o'rganish haqida hosil bo'lgan ma'lumotlarning o'rganuvchi tafakkurida aks etishi. Olingan ma'lumotlar voqelikka mutanosib va dalillar bilan asoslangan bo'lishi lozim. **Ko'nikma** — O'rganuvchining olgan bilimlarini amalga qo'llay bilish va muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati. Ko'nikma amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy ko'nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko'nikmalar esa bilim olishga, uni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. **Malaka** — muayyan kasb, tilni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat. Malaka hosil qilish til o'rganuvchining yoshi, individual xususiyati, bilimi va boshqa omillarga bog'liq. Yaxshi o'zlashtirilgan malaka ko'pincha, boshqa mahoratni hosil bo'lishida yordam beradi.

Ta'lim tizimida bilim, ko'nikma va malakalar Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarida belgilab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.03.2024 yildagi 157 –son Davlat ta'lim standartlari va Davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida qarorida ta'lim tizimida, bilim, ko'nikma va malaka talablari yanada takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi til o'rganuvchilarning globallashtirish dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va bosqichma-bosqich rivojlantirishdan iborat. Kommunikativ kompetensiya – o'rganilayotgan chet tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyati sanaladi. Shu o'rinda "kompetensiya" so'zining ma'nosini tushunib olishimiz zarur. **"Kompetensiya"** so'zi lotincha "competo" so'zidan olingan bo'lib, "erishaman", "mos kelaman" degan ma'nolarni ifodalaydi. Demak, kompetensiya deganda biror sohada faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talab tushuniladi. Kompetensiya tushunchasi nisbatan 1960-yillarning oxiri va 1970 yillarning boshlarida g'arbda, 1980-yillarning oxirlarida mahalliy adabiyotlarda maxsus yo'nalish – ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv paydo



bo'ldi. Kompetensiyaviy yondashuvda ta'lim natijasiga e'tibor beriladi. Bunda insonning qobiliyati turli xil muammoli vaziyatlarda harakat qilish, shu bilan birga, ta'lim natijalari ta'lim tizimidan tashqarida muhim deb tan olinadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Lingvodidaktika termini akademik N.M.Shanskiy tomonidan tilni o'quv maqsadida tavsiflash jarayonida kiritilgan. Lingvodidaktika ona tili va xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish jarayonining nazariy va amaliy asoslarini ifoda etish uchun qo'llanadi. "Lingvodidaktika" modulining asosiy maqsadi til asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirish, til o'qitish jarayoni, mazmuni, yo'nalishi, usul hamda vositalarini tahlil qilishdan iboratdir.

Lingvodidaktika til va tillar ta'limi bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ham uni tillar ta'limshunosligi deb atashga asos bor. Shu ma'noda tillar ta'limshunosligini chet tillar o'qitish metodikasining otasi, taniqli metodist olim Jamol Jalolov hozirgi zamon til o'qitish ilmidagi mavjud ma'lumotlarni umumlashtirib, lingvodidaktikaga quyidagi ta'rifni tavsiya etadi: "Tillar ta'limshunosligi" deganda, yakzabonlik, ikkitillilik va ko'ptillilikni o'rgatishga doir ilmiy soha tushuniladi." [Jalolov, 2012:360]. Ushbu ta'rifga ko'ra, qaysi tilni, qay sharoitda, nima maqsadda va qanday qilib o'rgatilishidan qat'iy nazar, til ta'limi qonuniyatlarida umumiylikni kuzatish mumkin. O'zbekistonda lingvodidaktika fanining asoschisi Jamol Jalolov hisoblanadi. Rus tilshunosligida I.I.Xaleeva "Lingvodidaktika" terminini "ta'lim, o'quv mazmuni komponentlarini asoslovchi, til tabiati va tilning sotsial fenomeni sifatidagi individning o'zaro harakatlari mexanizmi" deb ta'riflaydi. Karpov Viktor Dmitrievich lingvodidaktikaning asosiy g'oyalaridan birini taqdim etadi, ya'ni "til o'rganishning sinergetik modeli". Bu model tilni o'rganishda ham nutq, ham psixologik faktorlar birgalikda ta'sir etishini ta'kidlaydi. O'zbek tilshunosligida lingvodidaktika masalalari boshqa mavzular atrofida yoritilgan edi, yaqin yillardan boshlab alohida yo'nalish sifatida rivojlanmoqda. "Lingvodidaktika" moduli til o'qitish jarayoni, usullari, vositalari, metodlari, metodikasi va metodologiyasining umumiy nazariyasi sifatida talqin etiladi.

"Kompetensiya" va "kompetensiyaviy yondashuv" tushunchalari zamonaviy pedagogika fani amaliyotida faqat XX-asrning 90-yillari oxirida ishlay boshladi.

Kompetensiya tushunchasini yoritib berishda, uning fanga olib kiritilishida yetuk olimlarning hissasi kattadir. V.I.Dal kompetensiyani to'la huquq sifatida tushunadi va uni, asosan, huquqiy sohada qo'llaydi. D.I. Ushakov turli mualliflarning fikri va ular orasidagi farqlarni isbotlashga harakat qiladi: "kompetensiya – xabardorlik, vakolat; kompetensiya – ma'lum bir shaxs vakolati, bilimlari, tajribasi, texnik topshiriqlariga ega bo'lgan muammolar, hodisalar doirasi, kompetensiya – bu o'ziga xos shaxsiy xususiyat, vakolat esa o'ziga xos professional yoki funksional to'plamdir."

D. Ivanov bu tushunchalarni biroz boshqacha tarzda bayon etadi. Qobiliyat deganda, inson yaxshi biladigan, bilim va tajribaga ega bo'lgan qator masalalar tushuniladi.

Chet til o'qitishning lingvodidaktik masalalari, kompetensiya tushunchasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Olib borilgan tadqiqotlar chet tili ta'limini sifatli tashkil etishga katta ahamiyatga ega. Bunda kompetensiyalarning roli ham beqiyosdir. Uzlüksiz ta'lim tizimida chet tillarni o'qitishni to'g'ri va mazmunli tashkil etish, uning uzviyligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Mutaxassis olimlarning fikricha, chet tili o'qitishni mazmunli tashkil etish til o'rganuvchilarni tilga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, tilni mukammal egallashlariga keng imkoniyatlar beradi, chet tilida erkin muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bunda til o'rganish metodlari asosiy o'rinni egallaydi. Qiyida ba'zilarini misol tariqasida keltirishni lozim topdim.

Davra suhbatlari metodi: "Davra suhbatlari" metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirib boriladigan o'qitish metodidir. Uni boshlang'ich sinflarda quyidagicha qo'llash mumkin: o'qituvchi "Ich bin Malika" – deb o'zini tanishtiradi va bu gapni ko'p bor takrorlaydi. Aylana stol atrofida o'tirgan o'quvchilar birin-ketin o'zlarini ismlarini qo'yib



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

gaplarni aytadilar. Shu tariqa o'quvchilar o'z ismlarini nemis tilida qanday aytilishini bilib oladilar. Bu metoddan tanushuv darslarida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Wer kann schnell sprechen”. Teilnehmer: Gruppe oder Klasse. Der Lehrer / die Lehrerin gibt viele Wörter aus dem Thema. Die Kinder sollen die Sätze richtig bilden und sofort schnell sagen. z.B: das Thema: “Unsere Klasse“. Die Wörter: gibt es, in, die Schule, eine Bibliothek. In der Schule gibt es eine Bibliothek.

“Meine Hand, deine Hand”. Teilnehmer: Gruppe oder Klasse Während der Stunde zeichnen die Kinder das Bild einer Hand in verschiedenen, bunten Blättern. z.B: das Thema: “Die Bekanntschaft“. Jede Finger soll auf eine Frage antworten. 1. Wie heißt du? Wie heißen Sie? 2. Wo wohnst du? Wo wohnen Sie? 3. Wie alt bist du? Wie alt sind Sie? 4. Wo lernst du? Wo lernen Sie? 5. Wie lernst du? Wie lernen Sie? Monika schreibt ihr Name, ihr Wohnort, ihr Alt, ihr Studium in einer roten Hand. Lotte schreibt ihr Name, ihr Wohnort, ihr Alt, ihr Studium in einer gelben Hand. Dann tauschen sie ihre Hände. Damit können sie miteinander gut kennenlernen.

Uzluksiz ta'lim tizimida chet tili o'qitishning lingvodidaktik masalalari yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot tahlillari shundan dalolat beradiki, chet tili o'qitish ta'limini rivojlantirishga jadal yondashuv lozim. O'quvchilarda chet tilini mukammal egallashlari va muloqotda erkin qo'llay olishlari uchun darslarni to'g'ri tashkil etishda, chet tili o'qitishni uzviyligini ta'minlashda va darslarni ta'lim texnologiyalari asosida samarali tashkil etishni yo'lga qo'yishda tizimli ishlar olib borish lozim.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions)

Shuni e'tirof etish kerakki, lingvodidaktika til o'qitish va o'rganish jarayonining nazariy va amaliy asoslarini o'rganadigan fan sifatida qaraladi. Uzluksiz ta'lim tizimida chet tilini o'rgatishning asosiy maqsadi — o'quvchining o'rganilayotgan tilini har tomonlama mukammal egallash va uni real hayotda muloqotda samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida chet tilida o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishga katta e'tibor qaratish lozim. O'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish orqali tilni amalda qo'llash o'zining ijobiy samarasini beradi. Chet tili darslarida masalan nemis tili darsida o'qituvchi nemis tili muhitini yaratishi mumkin. Lekin tilni mukammal egallash uchun bu til muhiti kamlik qiladi. Taklifim shundan iboratki, imkoniyatlardan kelib chiqib, til o'rganuvchilarni til amaliyotlarini o'tashni tili o'rganilayotgan mamlakatlarda o'tash, yoki tili o'rganilayotgan mamlakat mutaxassislarini ta'lim muassasalariga ko'proq jalb qilish o'zining ijobiy samaralarini beradi. Demak tilni amaliyotda ishlatish orqali ko'nikmalarni o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Til o'qitish va o'rganish jarayonini to'g'ri tashkil etish va til o'rganishda ijobiy natijalarga erishish maqsadida 2001 yilda Yevropa Kengashi tomonidan Chet Tillarni egallash Umumevropa kompetensiyalari (CEFR) joriy etilgan. Tizim nemis tilida Gemeinsamer europäischer Referenzrahmen (GER) deb yuritiladi. Bu tizim, til o'rganish va o'rganilgan tilni baholashda yagona standart yaratish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, til o'qitish va o'rganishning sifatini yaxshilashga yordam beradi. CEFR tizimi tilni o'rganishning olti darajasini (A1, A2, B1, B2, C1, C2) belgilaydi.

CEFR tizimi chet til o'rganuvchilar uchun tilni har tomonlama egallash imkonini berdi. Uzluksiz ta'lim tizimida CEFR tizimi asosida Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi. Unda o'quvchi va talabalarning chet tillar bo'yicha bilim va tayyorgarlik darajalari belgilab berildi, o'quv reja va dasturlar, darsliklar, qo'llanmalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi va qilmoqda. Mulohaza qilib shuni aytish kerakki, uzluksiz ta'lim tizimida chet tilida kommunikativ qobiliyatni rivojlantirishga turli metodlardan foydalanish o'zining ijobiy natijasini beradi. Chet tilini o'qitishda ishlatiladigan metodlar juda xilma-xildir. Ushbu metodlarning barchasi o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgandir. Keng tarqalgan metodlardan biri **komunikativ metoddir**. Bu metodda tilni o'rgatish jarayoni, avvalo, muloqotga asoslanadi.



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

Texnologiyalar yordamida tashkil etilgan interaktiv o'qitish metodlari ham chet tilini o'rgatishda samaralidir. Bunda o'quvchilar tilni texnologiyalar orqali o'rganadilar va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Tilni tez va oson egallaydilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, uzluksiz ta'lim tizimida lingvodidaktika til o'qitish va o'rganish jarayonining nazariy va amaliy asoslarini o'rganadigan fan sifatida e'tirof etilar ekan, uning negizi bo'lgan kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Bugungi kunning talabi o'rganilayotgan tilni real hayotda muloqot qilish uchun tayyorlashga qaratilgan. Bu masalalarni amalga oshirish uchun tizimli yondashuv talab etiladi.

Chet tili fani o'qituvchisi sifatida shuni aytishim lozimki, til o'rganuvchilar kommunikativ kompetensiyalarni to'la qonli o'zlashtirib olishlari uchun tilning fonetikasini, grammatik-leksik tomonlarini mukammal egallagan bo'lishlari zarur. Til bo'yicha bilimlarini uzviylik asosida rivojlantirib borishlari, tilni tez va oson egallashlariga olib keladi. Hozirgi kunda chet tilida kommunikativ chegaralarning kengayishi munosabati bilan kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda asosan quyidagilarga ahamiyat beriladi: **1. Tinglash ko'nikmasini rivojlantirish; 2. O'qish ko'nikmasini rivojlantirish; 3. Yozish ko'nikmasini rivojlantirish; 4. Gapirish ko'nikmasini rivojlantirish.** Ushbu ko'nikmalarni shakllantirish darsni mazmunli tashkil etishning asosini tashkil etadi va tilni mukammal egallashga zamin yaratadi. Muvaffaqiyatli muloqot uchun chet tilida tushunarli talaffuz, grammatikasi ham xatosiz bo'lishi kerak. Fonetik ko'nikmalarni yanada oshirish, grammatik qoidalarga rioya qilish va leksik boylikka ega bo'lish kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Trim, J. North, B. Coste, D. (2001). Gemeinsamer europäischer Referenzrahmen für Sprachen: lernen, lehren und beurteilen. München. Langenscheidt.
2. Jalolov, J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi. -T. "O'qituvchi", 360.
3. Jalolov, J. (2009). Til ta'limida yechimini kutayotgan muammolar. Til va til o'qitish metodikasi pragmatik va kommunikativ lingvistika talqinida. Respublika ilmiy anjuman materiallari. Namangan.
4. Базаров И.Р. (2019). Ўзбек тилида лингвотаълимшунослик терминологик бирликларининг шаклланиши ва ривожланишидаги асосий манбалар. "Ўзбекистонда хорижий тиллар" илмий-методик электрон журнал journal.fledu.uz № 6.
5. Jalolov J.J. Mahkamova G.T. Ashurov Sh. S.(2015) . English language. Teaching Methodology (theory and practice) –T."Fan va texnologiya".
6. Jalolov J.J. Mahkamova G.T. (2010). Ingliz tili o'rgatish texnologiyasi: Pedagogika kasb-hunar kollejlari uchun o'quv – metodik qo'llanma –T. Fan va texnologiyalar markazi.
7. Kiyamova M.S. (2019). Turli yoshdagilarga chet tili o'qitish metodikasi.T. "Musiqqa nashriyoti".
8. Peter Bimmel, Bernd Kast, Gerd Neuner. (2011.)"Deutschunterricht planen". -München.
9. N.N.Azizxo'jayeva. (2006).Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.
10. Ko'chiboev A. K.(2012).Chet tillar o'qitishning amaliy metodikasi. S.
11. Xoshimov O'., I. (2003)Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi T.

